

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida  
2024-yil 1-chorakda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha umumiy  
ma’lumot**

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha 2024-yil uchun ish rejasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan va tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish maqsadida «Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti» tomonidan o‘tkaziladigan ma’rifiy targ‘ibot bo‘yicha qisqa muddatli o‘qitish kurslarida vazirlik va uning tizimidagi korxonalardan ishchi xodimlar o‘z bilim va malakalarini oshirmoqdalar.

Bundan tashqari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan taqdim etilgan raqamli targ‘ibot mahsulotlari - salbiy tendentsiyalarga barham berishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot materiallari vazirlik va tizimosti korxonalar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borilmoqda.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida Ma’naviyat va ma’rifat Kengasgi tashabbusi bilan “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida “Ma’naviyat soatlari” o‘tkazilmoqda.

April oyi respublikamizda “Keksalar turizmi oyligi” deb e’lon qilingan. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida faxriylar uchun sayohatlar tashkil etilmoqda.

6-Birlashgan kasaba uyushmasi Qo‘mitasi tashabbusi bilan “Navoiyuran” DK tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilgan faxriylar uchun sayohatlar tashkil etilmoqda.



Xususan, Zafarobod qo‘rg‘onida yashovchi bir guruh mehnat faxriylari Xiva shahrida ikki kunlik sayohatda bo‘ldilar.



Sayohat davomida faxriylar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan ham bir guruh kombinat mehnat faxriylari uchun Samarqand shahriga sayohat tashkil etildi.

Ikki kunlik sayohat davomida faxriy metallurqlar ushbu qadimiy shaharning tarixiy obidalari va qadamjolarini katta qiziqish bilan tomosha qildilar, unutilmas yorqin taassurotlarga ega bo'ldilar.



## **Geologiya fanlari universitetining 3-bosqich talabalari “Adiblar xiyoboni” – ma’naviyat maskaniga tashrif buyurdilar**

Geologiya fanlari universiteti bir guruh talabalari ma’naviyat maskani bo‘lmish adiblari xiyoboniga tashrif buyurdilar.

Adabiyot – har bir xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lovchi, ta’sir kuchiga ega muhim vosita ekanligi unda har bir millatning madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi, ma’naviyati aks etishi bilan bir qatorda yurtimizda adabiyot va san’at sohasiga oid qator islohotlar olib borilatorgani ta’kidlab o‘tiladi.

Tashrif davomida Jahon adabiyoti jurnali muxarriri o‘rinbosari, adabiyotshunos olim A.Tojiyev talabalarga Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiy qarashlarni mufassal bayon qilib berdi.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasi”, 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmonida tadbiriq etilishi belgilangan, hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturi takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

## **Kon-geologiya vazirligi va uning tizimosti korxonlari “Xon atlas” haftaligida faol ishtirok etdi**

Joriy yilning 8 – 14-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda uning tizimosti korxonalarida “Xon atlas” haftaligining birinchi bosqichi doirasida turli ma’rifiy tadbirlar, fleshmoblar va chellenjlar o‘tkazildi.





“Xon atlas” festivali doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo‘linmalarida ishlaydigan xotin-qizlar o‘rtasida “Milliy qadriyatlarimiz – millat ko‘zgidir” mavzusida fleshmoblar tashkil etildi.



Olmalıq kon metallurgiya kombinatining barcha tarkibiy bo‘linmalarida "Milliy qadriyatlar oyligi" doirasida "Xonatlas" chellenji ko‘tarinki ruhda o‘tkazilmoqda.

"Milliy qadriyatlarimizni qadrlaymiz!" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Respublika Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan yurtimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan "Xonatlas" chellenjini faol qo‘llab-quvvatlanmoqda.



Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida “Biz yoshlar – korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida ma'naviy-ma'rifiy va targ‘ibot tadbirlari hamda davra suhbatlari o‘tkazilmoqda.

“Navoiyuran” davlat korxonasi “Uran va noyob metallar geologiyasi” IICHM, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markazi va “Zafarobod” kon boshqarmasi Elektr tarmoqlari va podstantsiyalari ishchi-xodimlari ishtirokida “Biz



yoshlar – korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot tadbirlari hamda davra suhbatlari o‘tkazildi.



H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida ham "Korrupsiyaga qarshi kurashish" masalalarini muhokama qilish yuzasidan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida Institut komplaensi A. Axmadaliyev Korrupsiya natijasida ro'y beradigan noxush xolatlar, uning oqibati va har qanday sohaning rivojlanishiga to'siq bo'ladigan omillar haqida to'xtalib o'tdi.



"O'zbek geologiya qidiruv" AJ Samarqand MGQEs rahbariyati va xodimlari Muqaddas Ramazon Xayiti arafasi hamda Geologiya sohasi xodimlari kuni munosabati bilan, sohada uzoq yillar davomida mexnat qilib faoliyat yuritgan nafaqadagi mehnat faxriylarini bayram bilan tabriklab xonadonlariga tashrif buyurishdi.



"Farg'ona geofizika ekspeditsiyasi" filialida Ramazon oyi munosabati bilan korxonada ko'p yillar mehnat qilgan nafaqadagilar, bemor faxriylar va ehtiyojmand yolg'iz ayollarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida filial ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan ularning holidan habar olindi.



Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida ishchi-xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish ishlari olib boriladi.

“O‘zbekgeofizika” AJ ning "Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi" filialida ishchi-xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish maqsadida sportning futbol turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Musobaqada filial xodimlaridan iborat jami 4 ta jamoa g'oliblik uchun kurash olib bordilar. G'olib va sovrindorlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

